

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH SHAROITLARI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo'qon universiteti Ta'lim

kafedrası katta o'qituvchisi

Email: ms.zulfiyaxon08@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratishning dolzarb muammolari ko'rib chiqilgan. Bularga quyidagilar kiradi: ushbu jarayonni ta'minlaydigan rivojlantiruvchi ijodiy muhitni yaratuvchi tashqi sharoitlar; talabani o'z salohiyati bilan belgilanadigan ichki sharoitlar; predmet muhitini tashkil etish orqali o'quv faoliyatining qulay sharoitlarini yaratuvchi moddiy sharoitlar.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratishning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Ular bu jarayonni ta'minlaydigan ijodiy muhitni rivojlantirishga yordam beradigan tashqi shart-sharoitlar; o'quvchining salohiyati bilan belgilanadigan ichki shart-sharoitlar; va o'quv muhitini tashkil etish orqali o'quv faoliyatining qulay sharoitlarini yaratuvchi moddiy shart-sharoitlardir.

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные проблемы создания условий, способствующих формированию и развитию педагогического мастерства будущих учителей. К ним относятся: внешние условия, создающие развивающую творческую среду, обеспечивающую данный процесс; внутренние условия, определяемые собственным потенциалом студента; материальные условия, создающие благоприятные условия учебной деятельности путем организации предметной среды.

Рассмотрены актуальные вопросы создания условий, способствующих формированию и развитию педагогического мастерства у будущих учителей. К ним относятся внешние условия, способствующие развитию творческой среды, обеспечивающей этот процесс; внутренние условия, определяемые потенциалом учащегося; и материальные условия, создающие благоприятные условия для учебной деятельности путем организации учебной среды.

Abstract. The article addresses pressing issues related to creating conditions that contribute to the formation and development of future teachers' pedagogical skills. These include: external conditions that create a developing creative environment that ensures this process; internal conditions determined by the student's own potential; and material conditions that create favorable conditions for learning activities through the organization of the subject environment.

Current issues of creating conditions conducive to the formation and development of pedagogical skills in future teachers were considered. These include external conditions that contribute to the development of a creative environment that ensures this process; internal conditions determined by the student's potential; and material conditions that create favorable conditions for learning activities through the organization of the learning environment.

Kalit soʻzlar: *pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik koʻnikmalar, ijodiy rivojlanish muhiti, pedagogik mahurat*

Ключевые слова: *педагогические условия, педагогические навыки, среда творческого развития, педагогическое мастерство*

Keywords: *pedagogical conditions, pedagogical skills, creative development environment, pedagogical mastery*

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki pedagogik mahorat nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi, balki kelajak avlodning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi. Shu boisdan ham davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish maqsadida:

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining:

Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarini tashkil etish;¹ haqida so'z aytiladi bu esa o'qituvchi kadrlarni pedagogik mahoratini oshirish, milliy qadryat va zamonaviy ta'lim uyg'unligini ta'minlash juda muhimdir.

Ta'limda uzluksiz davom etayotgan innovatsion jarayonlar shunga olib keladiki, fan bo'yicha bilimlarning yuqori darajasi va uni o'qitishning o'rganilgan metodikasini egallash o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining dolzarb darajasini to'liq tavsiflay olmaydi. Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimining jiddiy muammolaridan biri o'qituvchilarning maqbul pedagogik qarorlarni mustaqil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-231-son

qabul qilishni talab qiladigan sharoitlarda ishlashga tayyorgarlik darajasining yetarli emasligidir. Ma'lumki, o'qituvchining amaliyotda talab qilinadigan o'quv jarayonini mustaqil, ilmiy asoslangan tarzda qurish ko'nikmalari oliy ta'limdan so'ng o'z-o'zidan shakllanadi yoki yetarlicha uzoq va to'liq shakllanmaydi.

Pedagogik ta'limning jadal rivojlanishi bilimlardan tashqari, bo'lajak o'qituvchining ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish va undan foydalanishni nazarda tutuvchi pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishga e'tibor qaratish zarurligini taqozo etadi.

Biz o'qituvchining pedagogik mahoratini yuqori kasbiy kompetentlik, pedagogik tajriba va ijodkorlik, rivojlangan antitsipatsiya bilan ajralib turadigan faoliyatda namoyon bo'ladigan, yuqori darajada rivojlangan shaxsiy fazilatlar (intellektual madaniyat, shaxsiy yetuklik, individual pedagogik uslub, o'z-o'zini faollashtirish) bilan ichki jihatdan shartlangan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda uning yuqori kasbiy-pedagogik tayyorgarligi va mahoratining integrativ xususiyati sifatida ta'riflaymiz²

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologivasi "mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.³

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

- ✓ mazkur jarayonni ta'minlovchi rivojlantiruvchi ijodiy muhitni yaratuvchi tashqi shart-sharoitlar;
- ✓ talabaning o'z salohiyati bilan belgilanadigan ichki shart-sharoitlar;
- ✓ predmetli muhitni tashkil etish orqali o'quv faoliyati uchun qulay shart-

² Romanova, K. Ye. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish strategiyalari / K. Ye. - 2009. - No 1. - S. 189-194.

³ Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, - 420 B.11-bet.

sharoitlarni yaratuvchi moddiy shart-sharoitlar.

Rivojlantiruvchi ijodiy muhitni yaratuvchi tashqi shart-sharoitlarni murakkab tabiatli, ko'p komponentli va ko'p omilli pedagogik hodisa sifatida tushunish taklif etiladi, bu ham ijtimoiy, ham ma'naviy, ham predmetli-moddiy omillar yig'indisi, ya'ni ta'lim jarayoniga xos bo'lgan barcha muhitdir. "Rivojlantiruvchi ijodiy muhit" tushunchasi pedagogika tomonidan falsafadan olingan bo'lib, u yerda "muhit"ning mazmuniy ekvivalenti bilan tenglashtirilgan. Muhit deganda biron-bir fazoni to'ldiruvchi va ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan modda; biror-bir organizmning hayot faoliyati amalga oshiriladigan tabiiy va ijtimoiy sharoitlar majmui; inson hayoti kechadigan ijtimoiy-maishiy muhit; sharoitlar, muhitning umumiyliги bilan o'zaro bog'langan odamlar guruhi tushuniladi.

Rivojlantiruvchi ijodiy muhitda shaxs shakllanadi, u atrofdagi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish faolligi, yuqori mustaqillik, o'z fikrlari va xatti-harakatlarining ochiqliги va erkinliги bilan ajralib turadi.

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim faoliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi". Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Avvalo zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganliги, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqotlar metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish malakasiga ega bo'lishi, o'qitadigan o'quv fanidan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalar, elektron darsliklarni yarata olishi va amalda qo'llay olishi lozim. O'zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o'z-ozini nazorat qilish va baholash malakasini egallashi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqarish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari talablari asosida metod, shakl va vositalarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida uzviy qo'llash malakalarini bilishi kerak. O'qituvchi — odobli, adolatli hamda "bola qalbining injeneri"dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'quvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladilar. Bola garchi yosh bo'lsa-da, uning inson ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Pedagog olim Komil Zaripov o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini "Ilg'or o'qituvchi", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi: "Ilg'or o'qituvchi" avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni

o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.⁴

Shu bois, o'qituvchi o'z faoliyatida ilmiylik, odoblilik va adolat tamoyillariga tayanib, har bir o'quvchiga mehr bilan yondashgan holda, ularning qalbi va tafakkurini nurafshon etuvchi "bola qalbining injeneri" bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyat – bu yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislarning mehnat faoliyati. Pedagogik mahorat. O'qituvchi muvaffaqiyatli ishlashi uchun pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik qobiliyat. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik, mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa, yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini bilish. O'qituvchilik ixtisosining xususiyatlari professiogrammasida ifodalanadi, professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari.
2. O'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar.
3. Maxsus tayyorgarlikni hajmi va mazmuni.
4. Ixtisosga oid umumiy tayyorgarlikning mazmuni.

Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va ko'zatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, xaqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qatilylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik. Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish. Pedagogik malaka - egallagan bilim va ko'nikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.
2. Har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.
3. O'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

Tashkilotchilik malakalar:

⁴ Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 B.24-bet.

1. O'quvchilar orasidagi aktiv bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idora qilish.

2. O'quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy aktivliklarini bilish.

3. O'quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarini berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.

4. O'zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.

5. Ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ishlar tashkil eta bilishi, maktab rejimi shunday to'zilishi kerakki:

Bola maktabda yaxshi o'qisin, samarali xizmat qilsin, yaxshi dam olsin, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lsin, bunday faoliyatni uyushtirishga doir pedagogik talablar qo'yiladi.

O'qituvchi shaxsining insonparvarlikka yo'nalganligi Kasbiga, ishiga va o'quvchilarga bo'lgan munosabati. O'z fanini chuqur bilishi hamda fani va kasbiga tegishli bo'lgan barcha fanlardan yetarli darajada xabardor bo'lishi "Agar o'qituvchi o'zida o'z ishiga va o'quvchilarga bo'lgan muhabbatini ko'rsata olsa– u mukammal o'qituvchidir".

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning tarbiyalanganlik darajasidir. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. O'qituvchilik kasbining shakllanishi davomida uning pedagogik mahorati takomillashib boradi. U har xil psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o'z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo'llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchilar yillar davomida yig'ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydilar. O'quvchilarning nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalarini ko'rsatish O'qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-231-son
2. Romanova, K. Ye. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish strategiyalari / K. Ye. - 2009. - No 1. - S. 189-194.

3. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, - 420 B.11-bet.
4. Sadriddinova, Z. M. (2025). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani misolida). *Inter education & global study*, 3(6), 270-280.
5. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI VA UNING ZAMONAVIY TA'LIMDA TUTGAN O 'RNI. *IZLANUVCHI*, 1(7), 159-163.